



## BILVOSITA SOLIQLAR AUDITI AMALIYOTINING ZAMONAVIY HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

PhD, dots. **Djalilov Rahmonkul**  
Qarshi davlat texnika universiteti  
ORCID: 0009-0002-1029-1027  
[djalilovraxmonqul@gmail.com](mailto:djalilovraxmonqul@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz soliqlari bo'yicha soliq auditining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. QQS auditining maqsadi, vazifalari, audit jarayonida yuzaga keladigan asosiy soliq xavflari hamda ularni aniqlash usullari yoritilgan. Tadqiqot davomida QQS auditini o'tkazish dasturi taklif etilgan va soliq auditining samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** qo'shilgan qiymat solig'i, QQS audit, aksiz solig'i, soliq audit, soliq xavfi, soliq bazasi, soliq imtiyozlari, soliq ma'murchiligi, elektron hisobvara-q-faktura, soliq nazorati, budget daromadlari, soliq hisoboti, riskka asoslangan audit, soliq tekshiruvi.

## СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ АУДИТА КОСВЕННЫХ НАЛОГОВ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

PhD, доц. **Джалилов Рахмонкул**  
Каршинский государственный технический университет

**Аннотация.** В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты налогового аудита по налогу на добавленную стоимость и акцизным налогам. Описаны цель и задачи аудита НДС, основные налоговые риски, возникающие в процессе аудита, а также методы их выявления. В ходе исследования предложена программа проведения аудита НДС и разработаны подходы, направленные на повышение эффективности налогового аудита.

**Ключевые слова:** налог на добавленную стоимость (НДС), аудит НДС, акцизный налог, налоговый аудит, налоговый риск, налоговая база, налоговые льготы, налоговое администрирование, электронный счёт-фактура, налоговый контроль, доходы бюджета, налоговая отчётность, риск-ориентированный аудит, налоговая проверка.

## CURRENT STATE OF INDIRECT TAX AUDIT PRACTICES AND DIRECTIONS FOR THEIR IMPROVEMENT

PhD, assoc. prof. **Djalilov Rahmonkul**  
Karshi State Technical University

**Abstract.** This article examines the theoretical and practical aspects of tax auditing for value-added tax and excise taxes. The purpose and objectives of the VAT audit, the main tax risks arising during the audit, and the methods for their identification are described. During the study, a program for conducting a VAT audit was proposed, and approaches aimed at increasing the efficiency of the tax audit were developed.

**Keywords:** value-added tax, VAT audit, excise tax, tax audit, tax risk, tax base, tax benefits, tax administration, electronic invoice, tax control, budget revenues, tax reporting, risk-based audit, tax inspection.

### Kirish.

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) va aksiz solig'i davlat budjeti daromadlarining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu soliqlarni hisoblashda soliq bazasini aniqlash, imtiyozlarni qo'llash va hisob-kitoblarning to'g'riligini ta'minlash murakkab jarayon bo'lib, xatolar va soliq xavflarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shu bois QQS va aksiz soliqlari bo'yicha soliq auditini takomillashtirish, soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish hamda budjetga tushumlarning to'liqligini ta'minlash dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Tadqiqotda keltirilgan korxonalar misolida aniqlangan qo'shimcha soliq hisob-kitoblari ushbu masalaning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Jahon amaliyoti soliq ma'muriyatchiligida, buxgalteriya hisobida, soliqqa tortishda va soliq auditida eng murakkab soliq turi bu- qo'shilgan qiymat solig'idir. Qo'shilgan qiymat solig'i hisoblashda asosiy soliq stavkasi, nol stavkali QQS va ushbu solig'i bo'yicha katta miqdorda soliq imtiyozlarini berilish soliq bazasini aniq hisoblashda ma'lum qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq auditini o'tkazishda soliq solinadigan bazani aniqlashning to'g'riligi, imtiyozli stavkalarining qo'llanilishi, to'lovning o'z vaqtida amalga oshirilganligi va undan ozod qilishning asosligi tekshiriladi.

### Adabiyotlar sharhi.

QQS va aksiz soliqlari audit masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq qilinib, ilmiy ishlarida soliq auditining maqsadi, vazifalari, audit tartiblari, soliq xavflari va QQS hisob-kitoblarini tekshirish usullari yoritilgan. Shuningdek, Germaniya, Buyuk Britaniya, BAA va Keniya tajribalari o'rganilib, soliq audit amaliyotining o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Biroq QQS va aksiz soliqlari auditini tashkil etish hamda audit dasturlarini takomillashtirish masalalari qo'shimcha ilmiy izlanishlarni talab etadi.

Jumladan, Kireeva (2016) ilmiy ishlarida "Soliq turlari bo'yicha soliq auditini o'tkazishni, balkim, alohida soliq turlari bo'yicha soliq auditini o'tkazish bo'yicha kompaniyalarning ichki audit standartlarini ishlab chiqishni taklif qilgan".

Kurbanovni (2020) qayd etishicha: "Audit jarayonida quyidagilarni tekshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan to'lanadigan soliq turlarini;
- soliq turlari bo'yicha soliqqa tortish bazasini to'g'ri aniqlanishini;
- soliq imtiyozlarini to'g'ri qo'llanilishini o'rganish;
- soliqqa tortish bazasi va soliq summalarini to'g'ri hisoblanganligini tekshirish;
- soliq va yig'implarni o'z vaqtida byudjetga to'langanligini aniqlash;
- soliq organlarining tekshirish natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliq summalarini va penyalarni to'langanligi;
- soliq va yig'implarni moliyaviy va soliq hisoblarida to'g'ri aks ettirilganligi;
- soliq hisobotidagi ma'lumotlarni haqiqiyli va ishonchliligi tekshiriladi" (Kurbanov, 2020).

Yana bir manbada: "QQS soliq audit — bu kompaniyaning moliyaviy va soliq hisobotlarining muvofiqligini tekshirish jarayoni. Bu kompaniyaning soliq organlariga to'lanadigan QQSni to'g'ri hisoblab chiqqanligi, ushlab qolingani, undirilganligi va deklaratsiyasini tekshirish imkonini beradi. Auditning maqsadi kompaniyaning amaldagi soliq qoidalariga rioya qilishini ta'minlash va moliyaviy jarimalardan qochishdir" (2023) degan fikrni bildirgan.

Kashirskaya, Komusheva, Zurnadjanslarni (2023) qayd etishicha "Audit davomida QQS bo'yicha soliq hisobotining mavjudligi va to'g'ri to'ldirilganligini tekshirish soliq majburiyatlari bajarilishini ta'minlash va soliq ko'rsatkichlari bo'yicha ishonchli ma'lumotlarni taqdim etishda muhim ahamiyat kasb etadi. QQS audit kompaniyaning moliyaviy holatini va uning qonun talablariga muvofiqligini baholashning muhim bosqichidir. Tekshiruv natijasida soliqning

ortiqcha yoki kam to'lanishiga, shuningdek soliq organlarining jarimalariga olib kelishi mumkin bo'lgan xavf va xatolar aniqlanishi mumkin".

Bunina va Pavlyuchenkolarning (2019) fikricha, "Hisoblangan soliq miqdori bilan bog'liq holda amalga oshiriladigan asosiy xavf operatsiyalaridan biri. Byudjetga to'lanadigan QQS miqdorini minimallashtirish maqsadida kompaniyalar ko'pincha turli xil firibgarlik turlariga murojaat qilishadi, bu esa soliq organlarining QQS chegirmalari toifasiga alohida qiziqish uyg'otdi".

Kushnarenko va boshqalar (2019) QQSni auditini o'tkazishda quyidagi manbalarga e'tibor berishni tavsiya etgan: "QQS bo'yicha hisobot auditida muhim o'rinni buxgalteriya hisobi ma'lumotlari, realizatsiya kitobi va soliq hisobotining solishtirilishini tekshirish egallaydi. Ko'pincha, joriy hisobot davridagi oldingi hisobot davrlaridagi xatolarni tuzatish bilan bog'liq xatolar audit jarayonida aniqlanadi. Bunda buxgalter buxgalteriya hisobi registrlarida va tuzatishlar kiritilgan hisobot davri uchun QQS deklaratsiyasida xatolarni tuzatuvchi yozuvlarni solishtirishi kerak".

Akramov (2022) qo'shilgan qiymat solig'i auditining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda unga quyidagicha ta'rifni bergan: "Qo'shilgan qiymat solig'i auditini – bu QQSning bazasini to'g'ri shakllanishini, imtiyozlarni to'g'ri qo'llaninishini, QQS so'mmasi o'rnini to'g'ri qoplanishini, buxgalteriya hisobini yuritilishi va soliq hisobotlaridagi axborotlarning ishonchliligini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishdir".

"Germaniyada soliq auditini, shu jumladan qo'shilgan qiymat solig'i auditini maxsus soliq tekshiruvini sifatida qaraladi. QQS bo'yicha soliq auditini — bu soliq organi QQS va tegishli masalalarga e'tibor qaratadigan biznesni tekshirishning o'ziga xos shakli. Noto'g'ri ma'lumotlar qasddan yoki qasddan taqdim etilishi mumkinligi sababli, ular QQS haqida gap ketganda tekshirishga bo'lgan ehtiyojni ko'rishadi. Butun buxgalteriya tizimini tekshiradigan oddiy soliq tekshiruvidan farqli o'laroq, QQS bo'yicha soliq auditini odatda muayyan masalalarga yoki vaqt davrlariga qaratilgan" (How the special VAT audit works for companies in Germany, 2024).

Boshqa manbada qo'shilgan qiymat solig'i auditiga quyidagi ta'rif berilgan: "QQS auditini — bu kompaniyaning soliq va hisobot majburiyatlariga muvofiqligini tekshirish jarayoni. Bu kompaniyaning soliq organlariga to'lanadigan QQSni to'g'ri hisoblab chiqqanligi, ushlab qolingani, undirilganligi va deklaratsiyasini tekshirish imkonini beradi. Auditning maqsadi kompaniyaning amaldagi soliq qoidalariga rioya qilishini ta'minlash va moliyaviy jarimalardan qochishdir" (2024).

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz soliqlari bo'yicha soliq auditini takomillashtirish masalalari ilmiy va amaliy jihatdan o'rganildi. Tadqiqot jarayonida umumilmiy hamda maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan kompleks foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) auditini – bu korxonadan tomonidan QQSning to'g'ri hisoblanishi, hisobotlarning o'z vaqtida topshirilishi va soliq summalarining asoslanganligini tekshirish jarayonidir. Audit QQS bo'yicha soliq majburiyatlarining bajarilishini baholaydi va soliq organlari tomonidan qaytarish (qoplash) jarayonida muhim hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq auditining maqsadi qo'shilgan qiymat solig'i summasi va hisobga olingan summalarining to'g'ri hisoblanishi hamda budjetga to'lanishini aniqlashdan iborat.

Soliq auditida soliq turlari bo'yicha eng yuqori soliq xavfi qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha xavfdir.

Qo'shilgan qiymat solig'i auditini o'tkazishda mumkin bo'lgan xavflar:

- soliqni to'lamaslik xavfi, ya'ni soliq qarzi darajasi yuqori bo'lgan soliq turi;
- soliq bazasini noto'g'ri aniqlash bo'yicha xavfning yuqoriligi;

- soliq bazasini o'z vaqtida aniqlamaslik xavfi;  
 - moliyaviy va soliq hisobotlarida realizatsiya summasining bir-biriga to'g'ri kelmaslik xavfi;

- soliq imtiyozlarini olishda hujjatlarni soxtalashtirish xavfi;
- soliq imtiyozlaridan maqsadsiz foydalanish xavfi va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan xavflarni hisobga olgan holda qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) auditini o'tkazishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq:

- audit davriga tegishli bo'lgan soliq hisobotlarini tahlil qilish, fikr-mulohazalar bildirilgan sohalarni aniqlash va ushbu masalalar bo'yicha tavsiyalarni amalga oshirish;

- joriy davr uchun QQS hisobvaraqlari qoldiqlarini oldingi davrlar bilan taqqoslash va sezilarli yoki noodatiy chetlanishlarni tahlil qilish;

- joriy davr uchun haqiqiy stavkalarni taqqoslash va sezilarli yoki odatiy bo'lmagan og'ishlarni tahlil qilish;

- hisobot davri uchun budjetga soliq to'lovlarini tahlil qilish;
- QQS chegirmalarining asosligini tekshirish;
- QQS imtiyozlarining haqiqiylikini va to'g'ri qo'llanilishini tekshirish.

### 1-jadval

#### “XXX” AJda qo'shilgan qiymat solig'i auditini o'tkazish dasturi

Soliq to'lovchining nomi		“XXX” AJ	
Asosiy faoliyat turi		Ishlab chiqarish	
Soliq auditi davri		2023-yil, 2024-yil, 2025-yil	
Auditorlik guruhi rahbari		Raupov I.M.	
Soliq xavfi		Kameral soliq tekshiruv natijasida aniqlangan	
N	Qo'shilgan qiymat solig'i auditining obyekti	Soliq auditning maqsadi	Soliq auditi tartib-taomillari
1.	Buxgalteriya hisobi bo'yicha aniqlangan mahsulotni sotishdan sof tushumni ishonchligini auditorlik tekshiruv	Moliyaviy va soliq hisobotidagi ma'lumotlarning ishonchligini o'rganish	Moliyaviy natijalarni to'g'ri shakllanganligini tekshirish maqsadida mahsulotni sotishdan sof tushum va tannarxning haqiqiylikini buxgalteriya hisobi registrlari va schyotlari ma'lumotlarini o'rganish
2.	Qo'shilgan qiymat solig'ini auditorlik tekshiruvdan o'tkazish	QQS summasining to'g'riligini aniqlash	QQSni buxgalteriya hisobi schyotlarida to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish. Buxgalteriya hisobi schyotlaridagi ma'lumotni QQS soliq hisoboti ma'lumotlari bilan solishtirish
3.	Sof tushumni to'g'ri shakllanganligini auditdan o'tkazish	Mahsulotni sotishdan sof tushumlarning me'yoriy hujjatlar asosida shakllanganligini asoslash	Hisobot davrida olingan daromadlarning schyotlar va hisobotlarda to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish. “Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot” va “Qo'shilgan qiymat solig'i hisoboti”dagi ma'lumotlarni taqqoslash.
4.	Elektron hisobvara-faktura va reestrlarni elektron shaklda to'ldirilganligini tekshirish	Elektron hisobvara-faktura va reestrlarni ishonchligini o'rganish	Qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlash maqsadida elektron hisobvara-faktura dagi ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish.
5.	Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha foydalanilgan soliq imtiyozlarini maqsadli ishlatilganligini auditdan o'tkazish	Imtiyozlardan maqsadli foydalanilganligini tekshirish	Soliq imtiyozlarini aks ettiruvchi schyotlar ma'lumotlarini va ulardan maqsadli foydalanilganligini auditdan o'tkazish. Foydalanilmay qolgan soliq imtiyozlarini byudjet to'g'ri
6.	Soliq auditini O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga amal qilgan holda o'tkazish va rasmiylashtirish.	Soliq auditi natijasini rasmiylashtirish	Dalolatnomani tuzish

**Manba:** dastur muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Qo'shilgan qiymat solig'i auditi bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Birinchidan, auditor zarur ma'lumotlar va hujjatlarni to'playdi hamda soliq xavfini aniqlash uchun kompaniya faoliyatini dastlabki tahlil qiladi va audit o'tkazish dasturini tuzadi.

Soliq auditini o'tkazish dasturi Soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanib beriladi. Biroq unda soliq turlari bo'yicha auditni o'tkazish alohida ko'rsatilmaydi. Biz tomonimizdan qo'shilgan qiymat solig'i auditini o'tkazish dasturi ishlab chiqildi (1-jadval).

Ushbu dastur asosida qo'shilgan qiymat solig'i auditining samaradorligi va natijaviyligi ta'minlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i auditini o'tkazishda raqamlashtirilgan elektron hisobvaraqa fakturalar va elektron tovar transport yuk xati ma'lumotlari tekshiruvdan o'tkaziladi.

So'nggi yillarda Respublikamizda soliq auditi xavfga asoslangan yondashuv asosida tashkil etilib, asosan soliqlarni to'lamaslik xavfi yuqori bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarda o'tkazilmoqda.

2025-yil yanvar oyida davlat soliq xizmati organlari tomonidan 309 ta tadbirkorlik subyektida soliq auditi o'tkazilgan bo'lib, bu faoliyat yuritayotgan jami soliq to'lovchilarning atigi 0,06 foizini tashkil etgan. O'tkazilgan soliq auditi natijasida jami aniqlangan soliq xavfi summasi – 1,4 trln so'mni va ular bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliq summasi – 1,5 trln so'mni tashkil etgan. 191 ta soliq to'lovchida 3 trln so'mdan ortiq yashirilgan soliq bazasi aniqlangan.

2025-yilning yanvar–avgust oylarida o'tkazilgan soliq auditlari natijasida esa 9,9 trln so'mga yaqin qo'shimcha soliq majburiyatlari aniqlangan. Auditlarda 1 407 ta soliq to'lovchida 15,9 trln so'mdan ortiq yashirilgan soliq bazasi aniqlangan. Eng ko'p qo'shimcha hisoblangan summalar savdo va umumiy ovqatlanish, ishlab chiqarish hamda qurilish sohalarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelgan.

2024-yil natijalariga ko'ra 195 ta soliq auditi va taftish tadbirlari o'tkazilgan, natijada 1 004,5 mlrd so'm qo'shimcha soliqlar hisoblangan, yirik soliq to'lovchilar bo'yicha 59 ta soliq auditi o'tkazilib, 2 249,9 mlrd so'm qo'shimcha soliqlar hisoblangan.

Shuningdek, QQS bo'yicha o'tkazilgan tahlillar natijasida 2024-yil yanvar–sentabr oylarida 101 ta holatda 1 176,9 mlrd so'mlik qayta hisobotlar olinib, budjetga mablag'larning undirilishi ta'minlangan. Ayrim korxonalarda QQS va aksiz solig'i bo'yicha aniqlashtirilgan hisobotlar taqdim ettirilgan.

2026-yil yanvar–aprel oylarida 1 338 ta tadbirkorlik subyektida soliq auditi o'tkazilgan, natijada aniqlangan soliq xavfi summasi 8,5 trln so'mni, audit natijasida aniqlangan qo'shimcha soliq summasi 3,9 trln so'mni tashkil etgan. 619 ta soliq to'lovchida 6,6 trln so'mlik yashirilgan soliq bazasi aniqlangan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda soliq auditi amaliyoti risklarni boshqarish tamoyiliga asoslanib rivojlanmoqda. Soliq auditlari soni nisbatan kam bo'lishiga qaramay, ularning natijadorligi yuqori bo'lib, asosan QQS, aksiz solig'i va foyda solig'i bo'yicha soliq bazasini yashirish, realizatsiya hajmlarini kamaytirib ko'rsatish, inventarizatsiya tafovutlari hamda kirim qilinmagan tovarlarni realizatsiya qilish kabi holatlar aniqlanmoqda. O'tkazilgan auditlar budjet daromadlarini oshirish, soliq intizomini mustahkamlash va soliq xavflarini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

### **Xulosa va takliflar.**

Qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz soliqlari davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur soliqlarni hisoblashning murakkabligi, ko'plab imtiyozlar va turli stavkalarining mavjudligi soliq bazasini aniqlashda xatolar va soliq xavflarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, QQS auditi korxonalarining soliq qonunchiligiga rioya etishini ta'minlash, soliq bazasining to'g'ri shakllantirilganligini tekshirish hamda budjetga tushumlarning to'liqligini nazorat qilishning samarali vositasi hisoblanadi.

Tahlillar davomida QQS bo'yicha eng yuqori soliq xavflari soliq bazasini noto'g'ri aniqlash, realizatsiya summalarini yashirish, soliq imtiyozlaridan asossiz foydalanish hamda moliyaviy va soliq hisobotlari o'rtasidagi tafovutlar bilan bog'liqligi aniqlandi. Shuningdek, so'nggi yillarda risklarni boshqarishga asoslangan soliq auditi amaliyoti natijasida trillionlab so'mlik qo'shimcha soliq majburiyatlari va yashirilgan soliq bazalari aniqlanib, budjet daromadlarining oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalari QQS auditini alohida soliq turi bo'yicha maxsus audit dasturlari asosida tashkil etish, raqamli ma'lumotlardan keng foydalanish va soliq xavflarini oldindan aniqlash mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatdi.

1. QQS auditi uchun alohida standartlashtirilgan audit dasturini joriy etish. Amaldagi soliq auditi dasturlarida soliq turlari kesimida auditorlik amallari yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli QQS bo'yicha auditni o'tkazishning alohida metodik dasturini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq. Bu audit sifatini oshirish va tekshiruv natijalarining yagona metodologiya asosida amalga oshirilishini ta'minlaydi.

2. QQS auditi jarayonida raqamli nazorat vositalaridan foydalanishni kengaytirish. Elektron hisobvara-fakturalar, elektron tovar-transport yuk xatlari va boshqa raqamli ma'lumotlar bazalarini avtomatik solishtirish mexanizmlarini joriy etish orqali soliq bazasini yashirish, soxta operatsiyalar va noqonuniy QQS chegirmalarini aniqlash samaradorligini oshirish mumkin.

3. Soliq xavflarini baholashning risk-indikatorlar tizimini takomillashtirish. QQS bo'yicha soliq qarzdorligi, realizatsiya hajmidagi keskin o'zgarishlar, imtiyozlardan foydalanish darajasi va hisobotlar o'rtasidagi tafovutlarni baholovchi risk-indikatorlar tizimini ishlab chiqish va audit tanlovida qo'llash soliq auditi natijadorligini oshiradi hamda budjetga qo'shimcha tushumlarni ko'paytirishga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar / Литература / Reference:**

Akramov F. (2022) *Soliq xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirish. 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.* – Toshkent.

*How the special VAT audit works for companies in Germany. (2024) October 16, <https://stripe.com/resources/more/special-vat-audit-germany#what-are-the-reasons-for-a-special-vat-audit>.*

Kurbanov Z.N. (2020) *Soliq auditining nazariy masalalari. "Logistika va iqtisodiyot" elektron ilmiy jurnal. 1-son, – 47–53-b.*

*VAT audit and the reliable audit trail. (2023) 02/22/2023. <https://www.eurofiscalis.com/en/vat-audit-and-audit-trail/>.*

Бунина А.Ю., Павлюченко Т.Н. (2019) *Аудит расчетов по налогу на добавленную стоимость. Российский экономический вестник, Том 2, №4.55-62 с.*

Каширская Л.В., Комушева А.Ц., Зурнаджьянц Ю.А. (2023) *Налог на добавленную стоимость (ндс) при аудите налогообложения в строительных компаниях. научный журнал "Управленческий учет". № 12. 117-123 с.*

Киреева В.В. (2016) *Разработка методического подхода к формированию системы внутрифирменных стандартов налогового аудита. Таврический научный обозреватель. №5.*

Кушнаренко Т.В., Пудеян Л.О., Смирнова И.В. (2019) *Аудит отчетности по НДС. Журнал. E-Scio.*